



Bo'ronova Oybarchin Xabibullo qizi

Termiz Davlat muzey qo'riqxonasi Rassom-ta 'mirlovchisi

YURTIMIZ HUDUDIDAN TOPILGAN QADIMIY BUYUMLAR HAQIDA

Annotatsiya: Har bir xalqning tarixi uning o'tmishi haqidagi muqaddas xotiradir. Shu boisdan madaniyatning yuksak pog'onasiga ko'tarilgan xalqlar o'z tarixiga, yodgorliklar va qo'lyozmalariga mehr-muhabbat bilan qaraydilar, avaylab asraydilar, doimo sinchiklab o'rganadilar. Ushbu maqolamizda ham shunday meroslarimizni ta'mirlash va ularni kelajakka yetkazish borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zarafshon, Afrosiyob, Viktoriya, Albert, «Sын Отечества»

Arxeolog sifatida, xalqimizning o'tmishini so'zlovchi tirik guvohlar - osor-atiqalarning bugungi ahvoli har bir o'zbek xalqini qiziqtishi kerak deb o'ylayman. Borlarini har holda asrab-avaylab kelyapmiz. Moskva, Leningrad va ko'pgina chet ellarga borgan vatandoshlarimiz u tomonlardagi muzeylarda saqlanayotgan eng sara, noyob osor-atiqalarimiz saqlanib kelinmoqda. XIX asrdagi «Sын Отечества» jurnalining knyaz Trubetskiy haqida yozgan xabariga qulqoq tuting: «Afrosiyobi aylanib yurgan polkovnik kechqurun ishdan qaytayotgan mardikorlarni uchratdi. Ular bir so'm evaziga, «omad uchun» xarobani qazishga rozi bo'lishdi. Yarim soatdan so'ng mardikorlar yonboshlab, o'ng qo'liga sherning shaklini ushlab turgan ayol haykalchasini topishdi...» Bunaqa «omad uchun» xazina axtaruvchilarning soni kundan-kunga oshib borardi. Afrosiyobdag'i tarixiy buyumlar bilan Peterburgdagi amaldorlar ham qiziqib qolishdi. Shu sababdan, Zarafshon okrugining boshlig'i A. Abramov, 1874-yilda mayor Borzenovga, Afrosiyobdan osor-atiqlarni topib Ermitajga jo'natishni buyruq berdi. V. Shishkinning yozishicha, 1883-yilda general-gubernator M. Chernyaevning buyrug'i bilan, podpolkovnik V. Krestovskiy Afrosiyobda qazish ishlarini boshladi. U topilmalarning bir qismini Toshkentda qoldirib, eng noyob, qimmatbaholarini Peterburgdagi Arxeologik komissiyaga jo'natdi.

Afrosiyobga hujum navbatni, keyinroq, N. Veselovskiyga keldi. Uni ilmiy natijalardan ko'ra, ko'proq qimmatbaho buyumlar qiziqtirardi. Shuning uchun u, zo'r berib, qimmatbaho topilmalarni axtardi. U to'plagan asl yodgorliklar hozirda Samarcanda emas, afsuski, Leningradda saqlanmoqda. 1894-95 yillarda Fransiyadan Samarcanda Shaffinjon degan kimsa kelib Peterburg Arxeologik komissiyasining ruxsati bilan, Afrosiyobda qazish ishlarini boshlaydi. Afsuski, u ham oldingi «tadqiqotchilar»dan farq qilmadi. Faqat yaltiroq, qimmatbaho buyumlarni zo'r berib axtargan Shaffinjon, topilmalarning bir qismini Arxeologik komissiyaga jo'natib, qolganlarini Parijdagi Osiyo etnografiyasiga muzeyga olib ketdi. 1895-yilda N. Veselovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya a'zolari mahalliy to'ralar bilan kelishib, Amir Temur maqbarasining nafis bezakli naqshinkor eshigini Peterburgga olib jo'nadilar. Maqbaraning g'arb tomonidagi eshigi tabaqasi ham o'g'irlab sotildi. Hozirda u Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida saqlanyapti. M. Massonning yozishicha, qurolli o'g'rilar 1901-yili Ulug'bek madrasasidan qimmatbaho toshni o'g'irlab chetga pullaganlar. 1903 yili, imperator Aleksandr III ning muzeyi uchun, Amir Temur maqbarasi oynasidan bir qismini jo'natish so'raldi. Mahalliy to'ralar bu iltimosni a'lo darajada bajarishdi; oyna qo'porilib, Peterburgga jo'natildi. 1905 yilda Amir Temur maqbarasiga yana katta ziyon yetkazildi. Peshtoqdagi nafis yozuvli lavha o'g'irlandi va 1906 yilda Qonstantinopolda sotildi. Uni Berlindagi Fridrix-Muzeumning direktori T. Bode o'n ming frankka xarid qildi. Elchilik yozishmalaridan so'ng, lavha Rossiyaga qaytarildi. Hozirda u Ermitajda saqlanmoqda. Lavhada: «Jahongir Amir Temur Ko'ragonning qabri, xudo uni rahmat qilsin va abadiy jannatda bo'lsin», degan yozuv bitilgan. Oktyabr inqilobidan so'ng ham o'lcamiz osor-atiqalarini markazga tashib ketishga chek qo'yilmadi, aksincha ko'paytirildi. Shu maqsadda bir necha ekspeditsiyalar tashkil etildi. 30-yillarda arxeolog G. Grigorev Darg'om kanalining qirg'og'idagi Kofirqal'a qoldiqlarini o'rgandi. Arablar istilosidan oldin barpo etilgan bu yodgorlikdan qadimgi san'at va madaniyatimizga oid buyumlar topildi. Lekin topilgan osor-



atiqalarning barchasi ruxsatsiz Leningradga tashib ketildi. Samarqandning janubida Talli Barzu yodgorligi bor. Tadqiqotlarning ko'rsatkshkcha, ushbu shahar So'g'diyona tarixida muhim o'rinnegallagan. Ushbu yodgorlik Maymo'rg' hokimligining poytaxti va ayni vaqtida Samarqand podsholarining mustahkam qarorgohi bo'lganligi ma'lumdir. Yodgorlikda G. Grigorev qazish ishlarini 1936-40 yillarda olib bordi. Topilgan sopol ko'zalar, tovoqlar, haykalchalar, yozuvlar bitilgan taxtachalar hamda diniy va dunyoviy ahamiyatga molik osor-atiqalarning eng saralari Ermitajga olib ketildi. Temurning buyrug'i bilan, 1391-yili To'xtamish ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga bag'ishlab, ikki tilda yozuv bitilgan tosh, Ishratxona, Bibixonim maschidi, Ulug'bek madrasasining devorlaridan ko'chirib olingan naqshinkor parchinlar, lavhalar, koshinlar. Sharq madaniyati durdonalaridan biri bo'lgan Xorazm yodgorliklarining shuhratini olamga yoyishda marhum arxeolog S. Tolstov boshliq ekspeditsiyaning xizmatlari beqiyosdir. Ekspeditsiya a'zolari 1951-57 yillar davomida, eramizdan oldingi IV asrlarda bunyod etilgan Qo'yqirilganqal'a nomli yodgorlikni qaziganlar. Bu yerda maqbara, qasr va doira shaklidagi ikki qavatlari ibodatxona ochilgan. Shuningdek, sopoldan yasalgan tobutlar (ostadonlar), har xil suratlar, hamda sopollarga bitilgan qadimgi Xorazm yozuvlaridan lavhalar topilgan. Bu qimmatli osor-atiqalar hozirda Moskvada Etnografiya institutida saqlanmoqda. Xuddi shunday achinarli hol Tuproqqa'ada ham sodir bo'ldi. Eramizning II-III asrlarida bunyod etilgan ushbu obida Xorazmning eng mashhur yodgorligidir. Bu yerda xorazmshohlarning «Muqaddas saroyi», ibodatxona va ma'muriy binolar ochilgan. Arxeologlar Tuproqqa'adan 150 dan ortiq xonalarni va devorlariga musiqachilar, sanamlar, raqqosalar, malikalar va podsholarning suratlari chizilgan hamda haykallar o'rnatilgan zallarni ochganlar. Bu yerdan Turonning antik davriga oid tarixi, san'ati, madaniyati va dinini oydinlashtiruvchi osor-atiqalar, yozuvlar, hujjatlar topilgan. Hozirda devoriy suratlar, haykallar va boshqa qimmatli topilmalar Moskvadagi Butunitifoq ta'mirlash ilmiy-tekshirish instituti (BTITI) da saqlanmoqda. Bulardan tashqari, Buyuk Xorazmning antik va o'rta asrlarga oid tarixini o'z bag'rida avaylab saqlab kelgan bozorqal'a, Burgutqal'a, Ayozqal'a, Devqal'a, Yonboshqal'a, Guldursun, Qizilqal'a, Qal'aliqir, Teshikqala, Qirqqizqal'a, Shohsanam, Qo'rg'onqal'a, Yakkaporson va boshqa yodgorliklardan topilgan bebafo osbr-atiqalar ham Moskvaga olib ketildi. Endi Surxondaryodagi yodgorliklar ahvoliga bir nazar solaylik. Ma'lumki, bu o'lkada tosh davrida yashagan neandertal qizning jasadi topilgan Teshiktosh g'oridan tortib, ilk shahar madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan Sopollitepa yodgorligigacha hamda Baqtriya podsholari, kushonlar, termizshohlar tomonidan bunyod qilingan yodgorliklargacha bor. Amudaryo sohilidagi Ko'hna Termiz xarobalarida joylashgan, II-IV asrlarga oid Qoratepa nomli budda ibodatxonasini dastlab Sharq xalqlari madaniyati muzeyi xodimlari tekshirganlar. 1961 yildan boshlab esa B. Staviskiy rahbarligidagi Butunitifoq ta'mirlash institutining ekspeditsiyasi ishlamoqda. O'z me'moriy yechimlari va jihozlari bilan g'oyat noyob bu yodgorlikda, yuksak iqtidor bilan yaratilgan sopol idishlar, tangalar, toshdan yo'nilgan lavhalar, sopol taxtachalarga va devorlarga bitilgan hindcha, Kushon-Baqtriya, fors-pahlaviy bitiklari topilgan. Ajodollarimizning hayot tarzi, mafkurasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradigan bunday bebafo osor-atiqalar Moskvaga olib ketildi. Qoratepadan topilgan bag'oyat nafis va bejirim qilib ishlangan Budda haykalining yana biri hozir Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Surxondaryodan markazga «yo'l olgan» noyob osor-atiqalardan biri, Ayrитом xarobasidan 1932 yilda topilgan piramon (friz)dir. Piramon qachonlardir bu yerda savlat to'kib turgan budda ibodatxonasi bezaklarining bir bo'lagi bo'lib, unda yonma-yon turgan va musiqa asboblarini chalayotgan musiqachilarning qiyofalari gavdalantirilgan. Bu topilma qadimgi Turon haykaltaroshlik san'atining noyob bir qismi sifatida g'oyat qadrlidir. Nadomatlar bo'lsinkim, bu buyuk san'at asarini O'zbekiston hukumati 30-yillarda Ermitajga hadya etgan. Surxondaryodagi Zartepa shaharchasini qazigan leningradlik arxeologlar ham topilgan osor-atiqalarni olib ketdilar. Gerakl, Bodisatva va Buddanining haykalchalari, Kushon podshohi Xuvishkaning tasviri tushirilgan medalon, qo'chqorning boshiga o'xshatib ishlangan qadah, qadimgi baqtriya yozuvi bitilgan sopol idish va boshqa topilmalar hozirda Arxeologiya institutining Leningrad bo'limida saqlanmoqda. Buxorodagi Varaxsha Narshaxiyining yozishicha, buxorxudotlarning yozgi qarorgohidir. Mazkur yodgorlikda 1937 yilda V. Shishkin rahbarligida qazish ishlari boshlandi. Bu yerdan devoriy suratlar, haykalchalar, tangalar, idish-tovoqlar hamda ko'plab san'at asarlari topildi. Bularning barchasi hozir Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati



muzeyida va Ermitajda saqlanmoqda. Paykent shahrini 1939 yilda A. Yakubovskiy va 1940 yilda R. Kesati qazib, topilgan kushonlar, soso niylar, so‘g‘diylarning tangalarini hamda boshqa qimmatli narsalarni Ermitajga olib ketdilar. 1980-yilda Davlat Ermitaji bilan O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti olimlari hamkorlikda Paykentni qazish haqida shartnoma tuzib, ishlarni boshladilar. Biz yuqorida asosan arxeologik qazishmalar natijasida qo‘lga kiritilib, so‘ngra chetga olib ketilgan osor-atiqalar haqida gapirdik. Lekin bundan boshqa yo‘llar bilan tarqab ketgan yodgorliklarimiz ham talaygina. Quyida shular haqida ham qisqacha to‘xtalmoqchimiz.

Ma'lumki, 1870 yillardan boshlab, xalqimiz orasidan Mirza Abdulla Buxoriy, Mirza Barot, Mulla Abdurahmon, Hofiz, Akrampolvon Asqarov kabi osor-atiqlarni qadrlovchilar va to‘plovchilar yetishib chiqdilar. Ular Turkiston tarixiga oid qadimgi tangalarni, san‘at asarlarini va boshqa qimmatli buyumlarni yiqqanlar. Bu kishilar to‘plagan qimmatbaho tarixiy buyumlarning ko‘pchiligi hozirda Ermitajda saqlanmoqda, ayrimlari esa qo‘lma-qo‘l bo‘lib yo‘qolib ketgan. Bulardan tashqari, Ermitajda Oktyabr inqilobidan oldin olib ketilgan osor-atiqlardan chor askarlarining 1873 yildagi Xeva yurishida qo‘lga kiritilgan oltin va kumush buyumlarni, Buxoro amiri tomonidan 1910-11 yillar Peterburgga yuborilgan qimmatbaho yodgorliklarni ham aytib o‘tishimiz lozim... Turkistonning qadimgi tarixiga oid osor-atiqalar Ittifoqimizdan tashqari - Rimdagagi Vatikan Apostollik, Angliyadagi Britaniya va AQShning Nyu-York shahridagi Metropoliten muzeylarida va ko‘plab shaxsiy jamg‘armalarda saqlanmoqda. Moskvadagi ta‘mirlash institutining B. Staviskiy rahbarligidagi ekspeditsiyasi Surxondaryodagi Qoratepa budda ibodatxonasidan hamon topilmalarni olib ketmoqda. Yaqinda bu yerdan topilgan Buddaning ajoyib haykali ham markazga olib ketildi. Aslini olganda, Ta‘mirlash instituti rahbarlari noyob osor-atiqlarini ta‘mirlab, so‘ngra o‘z vatanlariga qaytarishlari lozim. Samarqandning g‘arbidagi Do‘rmontepadan topilgan tangalar, sfinks haykalchasi, yozuv bitilgan taxtachalar, Varaxshadan topilgan qadimgi san‘atimizning noyob durdonalarini Moskvaga tashib ketdilar. Qolaversa, Armaniston, Gurjiston va Boltiqbo‘yi xalqlarining tarixiy meroslari markazdagi mashhur muzeylarda saqlanmaydi. Lekin bunday ular hech narsa yutqizmaydilar ham. Aksincha, ular oriyat bobida ham, madaniyat bobida ham bizdan ancha ustun turadilar. Balki bu xalqlar tarixiy meroslарini o‘z vatanlarida asrab, o‘zлari his qylganliklari uchun ham har qanday duch kelgan nobakorga o‘z qadr-qimmatlarini toptashga yo‘l bermayotgandirlar. Buni biz ham o‘ylab ko‘rsak yomon bo‘lmasisdi. Axir, hammaning ham Moskva, Leningradga borib o‘z tarixiy merosini ziyorat qilib kelishga qurbi yetavermaydi-ku!..

Agar O‘zbekistondan olib ketilgan topilmalarni qaytarishning iloji bo‘lmasa, unda, Ittifoq hukumati aralashuvi vositasida, muzeylar rahbarlari bilan; shartnoma tuzish lozim. Shartnoma, avvalambor, bu topilmalar O‘zbekistonning ma‘naviy boyligi ekanligi, bu topilmalar hech bir moneliksiz, bepul berilishi ta‘kidlanishi kerak.

Arxeologiya markazi shuning uchun ham kerakki, bu yerga O‘zbekiston maydonidan topilgan so‘g‘d, baqtriya, kushon, xorazm, uyg‘ur va turkiy yozuvlar bitilgan sopol, yog‘och, metall lavhalarni, Afrosiyob, Tuproqqa'l'a, Varaxsha, Bolaliktepa, Qoratesa kabi yodgorliklardan: topilgan devoriy suratlarni, haykallarni, zargarlar, kulollar va boshqa hunarmandlar yasagan noyob osor-atiqlarni jamlab, xalqqa namoyish etilsa. Chunki, o‘z zaminidan chiqayotgan tabiiy boyliklaridan mahrum bo‘lgan o‘zbek xalqini ma‘naviy merosidan ham judo qilyshga hech kimning haqqi yo‘q. O‘rni kelganda shuni aytishimiz kerakki, chet ellarda ishlayotgan Sovet arxeologlari barcha topilmalarni o‘scha davlat ixtiyoriga qoldirib keladi. Hattoki, qo‘shni Tojikiston SSRning Panjakent shahrida ishlvyotgan leningradlik arxeologlar ham topilmalarni Tojikistonda qoldirib ketadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N.Jo‘rayev, A.Zamonov “O‘zbekiston tarixi” darslik 2018-yil
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey> 3. Mejdunarodniy den muzeev — — Novosti i afisha muzeev Rossii — — www.Museum.ru „The theme“. 22-fevral 2017-yilda



3. <https://xs.uz/uz/post/muzejlar-eksponatlari>.
4. <https://yuz.uz/uz/news/muzeylarimiz-va-ularda-saqlanayotgan-eksponatlar>